

Musaev Isomiddin Saidovich

*Uzbek State University of Physical Culture and Sports  
Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature*

Musaev Isomiddin Saidovich

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi*

*Мусаев Исомиддин Сайдович*

*Узбекский государственный университет физической культуры и спорта. Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы*

## **WAYS TO ACHIEVE QUALITY AND EFFICIENCY THROUGH THE ORGANIZATION OF THE PEDAGOGICAL PROCESS ON THE SUBJECT "USE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE FIELD"**

**Abstract:** The article describes the components of the pedagogical process, their role in the educational process, the goals and objectives of the subject "Using the Uzbek language in the field", the competencies that students should have in the subject.

**Key words and phrases:** Uzbek language, competence, speech communicative competence, grammatical competence, socio-cultural competence, pedagogical process, components of the pedagogical process.

## **“O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI” FANIDAN PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH ORQALI SIFAT VA SAMARADORLIKKA ERISHISH YO‘LLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik jarayonlarni tashkil etuvchi komponentlar, ularning ta’lim jarayonidagi o’rni, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanining maqsadi va vazifalari, fandan talabalar egallashi lozim bo’lgan kompetentsiyalar yoritib o’tilgan.

**Tayanch so’z va iboralar.** O‘zbek tili, kompetensiya, nutqiy kommunikativ kompetensiya, grammatik kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, pedagogik jarayon, pedagogik jarayon komponentlari.

## **ПУТИ ДОСТИЖЕНИЯ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗА СЧЕТ ОРГАНИЗАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ПО ПРЕДМЕТУ «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В ПОЛЕВЫХ УСЛОВИЯХ».**

**Аннотация:** В статье описаны компоненты педагогического процесса, их роль в образовательном процессе, цели и задачи предмета «Использование узбекского языка в полевых условиях», компетенции,

*которыми должны обладать студенты по предмету.*

**Ключевые слова и фразы.** Узбекский язык, компетенция, речевая коммуникативная компетенция, грамматическая компетенция, социокультурная компетенция, педагогический процесс, компоненты педагогического процесса.

Musaev Isomiddin Saidovich - O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti  
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi

Bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko‘rsatish bevosita ijtimoiy raqobat muhitini talab etadi. Bu muhit o‘z navbatida yangiliklarga, yuqori sifat va samaradorlikka intilish, ijodkorlik, izlanuvchanlik, ishchanlik kabi ongli faoliyatga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli yosh avlodda mustaqil ravishda o‘qib o‘rganishga nisbatan ongli munosabat his-tuyg‘usini rag‘bat uyg‘otadi. Pedagogik jarayonda rag‘bat uni sifat va samaradorligini kafolatlovchi asosiy omil deb qaraladi. Bundan talabalarda o‘qib o‘rganishga bo‘lgan rag‘bat muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy holdir.

Oliy ta’lim muassasalarida “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanidan pedagogik jarayonlarni tashkil etish o‘qituvchidan sohaga oid yetarli bilim, tajriba, amaliy ish faoliyati, shuningdek, fanga oid kompetensiyalarni egallahni talab etadi. Chunki, fanni o‘qitish davomida talabalar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni pedagogik jarayonlarda ularga yetkaza olishi kerak.

“O‘zbek tilining sohada qo‘lanishi” fani o‘z oldiga quyidagilarni maqsad qilib oladi:

- talabalarda o‘zbek tilida soha bo‘yicha nutqiy kompetentlikni oshirish;
- mutaxassislikka oid og‘zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- soha bo‘yicha egallagan bilimlarni yozma va og‘zaki ravishda o‘zbek tilida ifoda etish ko‘nikmalarini takomillashtirish;
- sohada qo‘llanadigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta’minlash;
- nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish.

Shuningdek, talabalarning o‘zbek tilidan yozma nutqini takomillashtirish va savodxonliklarini oshirish hamda kasbiy, ilmiy va maishiy sohalarda faoliyat

yuritishlarida zaruriy bo‘lgan kompetensiyalarini ham shakllantirishdan iborat.

Kompetensiya – ishtirokchilar tomonidan ta’limning aniq maqsadlariga qaratilgan nutq faoliyatini rivojlantirishga imkon beradigan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig’indisini ifodalaydi.

Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy layoqati va mahorati hozirgi davrda o‘z kasbi doirasida qo‘llanadigan soha terminlarini, davlat tilida ish yuritish malakasini, nutq madaniyati asoslari hamda notiqlik mehyorlarini ham bilishni taqozo etmoqda.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanining asosiy mazmunida quyidagi kompetensiyalar talabalarda shakllanishi ko‘zda tutiladi:

1. Nutqiy kommunikativ kompetensiya - o‘zbek tilida erkin muloqotga kirishish va ish yuritish malakasini egallah.
2. Grammatik kompetensiya - til materiali va vositalari, xususan, ixtisoslik leksikasini nutqda qo‘llay bilish uchun yetarli bilimlarni o‘zlashtirish.
3. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya - milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash.

Ushbu mazmun asosan nutqiy-kommunikativ kompetensiyani egallah orqali “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘rgatishning umumta’limiy maqsadini, milliy ma’naviy madaniyatni egallah malakasi esa tarbiyaviy maqsadni ko‘zda tutadi.

*Nutqiy kommunikativ kompetensiya* egallanadigan nutqiy faoliyat taqozo etadigan ko‘nikmalar me’yorini belgilab beradi. Bunda o‘qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqeа-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish, ixtisoslik leksikasini o‘zlashtirish, o‘z kasbi doirasida davlat tilida ish yurita olish tarzida nutqiy aloqaga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

*Grammatik kompetentsiya* fanning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko‘nikmalar belgilanadi. Bunda o‘rganilayotgan so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish hamda yozish, ixtisoslikka oid terminologiya va leksikani grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantira bilish, so‘zlarni o‘rinli tanlash va sintaktik - uslubiy jihatdan baholay olish, jumla tuzishda va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalana olish, o‘zbek tilining ilmiy va rasmiy - idoraviy nutq uslubini puxta egallah talab etiladi.

*Ijtimoiy-madaniy kompetensiya* milliy ma'naviyatni egallash o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlari va ularni o'zida aks ettirgan qimmatli adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, uni o'qib o'rganish, milliy an'analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashishni taqozo etadi. O'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish ham ko'zda tutiladi.

Fanni o'qitish jarayonida talabalarda yuqoridagi kompetensiyalarni shakllantirish uchun pedagogik jarayonlarni to'g'ri tashkil etish lozim bo'ladi.

Ma'lumki, pedagogik jarayon tizimlilik xususiyatiga ega bo'lib, ma'lum belgilangan chegarada barqaror qoladigan komponentlarni o'ziga qamrab oladi. Agar kiritilayotgan yangilik ruxsat etilganidan ortib ketsa, tizim buzilib, uning o'rniغا yangi xususiyatga ega boshqa tizim hosil bo'ladi.

Pedagogik jarayon o'zining mohiyatiga ko'ra har doim texnologiyalashadi. Texnologiyalanish pedagogik tizimning ichki sifati bo'lib, uning imkoniyatlari qat'iy qonuniyat va qoidalarga bo'ysunadi. Texnologiyada variativlikka imkon berilmaydi, undan biror kichik komponentni olib tashlab bo'lmaydi, chunki texnologiyada ortiqchalikning o'zi mavjud emas.

Undagi biror komponentni almashtirsak, albatta natija o'zgarib ketadi. Tizimning umumiy nazariyasidan ma'lumki, bir paytning o'zida uning ko'p parametrlarini birdaniga yaxshilash mumkin emas. Shuning uchun ham tizimga yangiliklarni asta-sekinlik bilan kiritib, uning foydaliligiga ishonch hosil qilgandan so'ng har tomonlama tekshirish, keyingi o'zgartirishlar haqida o'yash zarur.


Shu o'rinda biz avval pedagogik jarayonning komponentlari (tashkil etuvchilari) haqida to'xtalib o'tsak. Chunki, pedagogik jarayonning samaradorligi faqat uning tashkil etish shakligagina emas, balki uning barcha tashkil etuvchi komponentlari va ko'plab omillarga bog'liq.

Pedagogik jarayon ko'p qirrali bo'lib, unga tarixiy, ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik, gigienik, tashkiliy boshqaruv, iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, mafkuraviy, huquqiy mehyoriy va shu kabi nuqtai nazarlardan yondoshish mumkinligi ko'p sonli olimlar va amaliyotchilar tomonidan tahkidlangan.

Shunday bo'lsada, pedagogik jarayonlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

## PEDAGOGIK JARAYON

*O'qituvchi va talabalarning belgilangan maqsadga erishish  
borasidagi o'zaro hamkorlik faoliyati*



### *1-chizma. Pedagogik jarayon tuzilmasi*

Pedagogik jarayon unda ishtirok etuvchi sub'ektlarga bevosita bog'liq bo'lib, u qanday tashkil etilib, o'tkazilishidan qat'iy nazar quyidagilarni ta'minlashni ko'zda tutadi[2]:

- pedagogik jarayon samaradorligi va sifatini oshirish;
- pedagogik jarayon ishtirokchilari orasida ongli muloqot va munosabatlarni qaror toptirish;
- talabalar tomonidan bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni har tomonlama mukammal o'zlashtirilishini tahminlash;
- talabalarda ongli faol, mustaqil, ijodiy fikrlash va xatti-harakatlarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabalarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanini o'qitishda, pedagogik jarayonlarni tashkil etishda o'qituvchiga qo'yilgan asosiy talab olib boriladigan mashg'ulotning mavzusidan kelib chiqqan holda, uning (kognitiv, psixomotorik, affektiv) maqsadlarini to'g'ri qo'ya olishi zarur. Maqsadga muvofiq ravishda esa ta'lrim shaklini, metodini va vositasini ishlata olishi lozim bo'ladi. Shundagina, u ortiqcha (ruhiy va jismoniy) zo'riqish, kuch, vaqt sarf etmagan holda yuqori sifat va samaradorlikka erishishi mumkin.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5850 – sonli Farmoni
2. Абдукудусов О.А, Рашидов Ҳ.Ф. Касб-хунар педагогикаси. Тошкент. ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2010 -270 бет
3. Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини оширишнинг йўллари. – ТДПУ, 2004. - 44 б.
4. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари: кўлланма. – Т.: “Ўқитувчи”, 2004. - 104 б.
5. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Darslik –Toshkent, Cho‘lpon. 2013.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. 456 b.
7. Ходжабоев, А.Р., Аноркулова, Г. М., & Парпиев, О. Т. (2011). Касбий таълимда укитиш воситаларидан фойдаланиш методикаси. Услубий кулланма.
8. Парпиев, О.Т. (2015). Построение учебного процесса в системе повышения квалификации педагогических кадров. Молодой ученый, (21), 822-823.